

O'ZBEK TILI LISONIY TIZIMIDA SHAXS MA'NAVIYATINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING AHAMIYATI VA ULARNING IFODALANISHI

N.Rajabova

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

1-bosqich tayanch doktoranti

Har qanday til ma'lum bir butunlik – tizim sanaladi, ya'ni har qanday tabiiy tilning o'zaro munosabatidagi o'ziga xos birlik va butunlikni tashkil qilgan lisoniy unsurlar jamlanmasidir. Bu tizim tarkibidagi birliklar alohida olinganda emas, balki bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgandagina mavjud bo'ladi, o'zini namoyon etadi.

Til murakkab tizim, butunlik deb qaraydigan bo'lsak, uning birliklarini, tarkibiy qismini, til sathlari: fonologik, leksik (semantik), morfologik, sintaktik va stilistik sathlar tashkil qiladi. Tilshunos olimlardan N. Uluqovning ta'riflashicha, "Til ichki tuzilishiga ko'ra bir-biriga bog'liq, biri ikkinchisini taqazo etuvchi sathlardan iboratligiga ko'ra sistema(tizim)dir.

Til sistema sifatida quyidagi sathlarga bo'linadi:

- 1) fonetik-fonologik sath;
- 2) lug'aviy sath;
- 3) grammatik sath"¹.

Demak, har bir sath o'z ichida yana va yana kichik birliklardan iborat bo'lgan mukammal sistemani tashkil qiladi.

Xalq donoligining mahsuli bo'lgan maqollarda ham yuqorida keltirilgan sathlarning o'z o'rnini bor. Masalan, tilshunoslikning boshlang'ich pog'onasi deya qaraladigan fonetik sath doirasida olib qaraydigan bo'lsak, maqollarning, shu jumladan, shaxs ma'naviyatini ifodalovchi maqollarning tadqiqi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

*Pismiqlik yotib put ko'tarar,
Shaldir-shuldur ot ko'tarar.*

Yoki

Pismiqlik put ko'tarar.

Har ikki maqolda "put" so'zi keltirilgan. Aslida "pud" tarzida yozilishi kerak bo'lgan so'zning jarangsiz juftini qo'llash orqali maqolning ma'naviy-axloqiy qiymatini oshirishga hissa qo'shgan. Sababi bilamizki, PISMIQ Maqsadini, sirini birovga aytmaydigan, indamay ish bitiradigan, ichidan pishgan (odam). Pismiqlik odam.

¹ N. Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2016. B 17.

Sodda siri tilida, pismiqlik saqlar dilida. Maqol.² Yuqorida ham ayni shunga ishora qilingan. Ichidan pishgan, pismiqlik inson ko'zlagan maqsadi amalga oshgunga qadar sir saqlab, unga erishi yo'lini bir qadar osonlatadi. Ammo sir saqlash nimaligini bilmagan sodda odamlar maqsadi yo'lida ancha pand yeydi yoki oxir-oqibatda shu maqsaddan voz kechishiga to'g'ri keladi. Maqolda keltirilgan "ot" hamda "put (pud)" so'zlari esa ular maqsadi yo'lidagi ko'tarishi kerak bo'lgan qiyinchiliklar sanaladi. Bizga ot qancha og'irlikka ega ekanligi ma'lum. Pud (put) r. [pud — 16,38 kg ga teng og'irlik o'lchov birligi < lot. pondus — ogirlik, o'lchov] esk. Metrik o'lchovlar tizimi qabul qilinganiga qadar qo'llangan, 16,38 kilo grammga teng og'irlik o'lchov birligi. Bir tonna — salkam 63 pud. mm [Kampir:] Dastmoyam bir pud un edi, tunov kun birdan yigirma besh qadoqqa tushib qoldi. Oybek, Tanlangan asarlar. Birinchi yil gektaridan yuz pud oldik, Er-u xotin mehnat haqin qopga soldik. G'. G'ulom, Tanlangan asarlar. ..bir yarim pud go'shtning a'zolar rizoliklari bilan bir pudini Mulla Obidga va yarim pudini Mardonboyga orttirib beradilar. A.Qodiriy, Kichik asarlar.³ Xulosa shuki, pismiqlik insonning hayotda ko'taradigan "yuk"i sodda insonga qaraganda bir muncha yengil bo'ladi. Maqollarda leksemalarning shu kabi sodda, ya'ni sheva variantida ko'p qo'llanilishi ularning tag ma'nosini chuqurroq anglab yetishga ko'maklashadi.

Odatda maqollarda shaxs ma'naviy dunyosini ochib beradigan ma'lum xulq-atvor, axloqqa oid kategorial birliklar to'g'ridan to'g'ri qo'llansa-da, ba'zan ular ma'lum majoz ortiga berkinadi.

"Bo'ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi.

Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan! — deya o'yladi Bo'ri polvon. — Bu yosh bola-ku! O'ylab ish qilyaptimi? Yo, kayfi bormi?"

Bir yosh bola Bo'ri polvon shon-shavkatini nazarga ilmay qurga yugurib chiqishi, Bo'ri polvon izzat-nafsiga tegdi. Bo'ri polvon darg'azab bo'lib davraga kirdi."⁴

Asardan olimgan parchada keltirilgan "Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan" maqoli keltirilgan bo'lib, "Hikmatnoma" ("O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati")da izohlanishicha, "Har kim xoh jismoniy, xoh moddiy, xoh ma'naviy o'z holi-qudratiga qarab ish ko'rishi, qurbi yetmagan, qo'lidan kelmaydigan, uddalay olmaydigan ishga urunmasligi zaruruligi uqtirganda aytiladi."⁵ Kamtarlikka undash, manmanlikdan qochish kerak ekanligi ham maqolning tag zahirida yashirin. Keltirilgan *laylak* va *chumchuq* obrazlari ham qay bir darajada

² O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- B 265.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- B 319.

⁴ Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. / Qissalar. – T.: "Sharq". 2009. B 52

⁵ Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma: O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. T.:1990. B 238

majoziy ma'nodagi inson xulq-atvorini anglatadi. Bu yerda laylak mag'rurlik, mukammallik ramzini ifodalasa, chumchuq kekkayganlik, o'ziga bino qo'ygan kimsa misolida keltirilgan. "But"- "put" so'zi ham yuqoridagi maqollarda qo'llangan kabi oddiy til egalariga tushunarli bo'la olishi bilan bir qatorda, maqol orqali yetkazib bermoqchi bo'lgan ma'naviy-axloqiy ma'lumotni anglab yetish ham tushunarli sanaladi hamda sath doirasida keltirib o'tilgan jarangli yoki jarangsiz fonemalar shu bilan birga, boshqa bir fonetik hodisalar tahlilida maqollardan foydalanish, ayniqsa, shaxs ma'naviy dunyosini ochib beruvchi maqollar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Leksik sath doirasida ham shaxs ma'naviyatini ifodalovchi maqollar dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, etimologiya yoki sheva, variant so'zlar izohida maqollar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson maqollar orqali o'ziga noma'lum bo'lgan leksik birlik, ma'nosi mujmal bo'lgan so'zning ma'no butunligi va u haqidagi tasavvurini ongida shakllantirib oladi.

Shu sababli ham o'zbek tilidagi maqollar va ulardan anglashiladigan ma'no-mazmun shaxs ma'naviyatini, axloqiy va shaxsiy fazilatlarini anglashga yordam beradi va maqollardan ibrat olgan holda shaxsiy qusurlaridan xalos bo'lishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N. Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2016. 260 b.
2. Rahamtullayev. Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent: Universitet, 2009.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild – T.: .:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-680 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild – T.: .:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-680 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild – T.: .:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-690 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild – T.: .:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-610 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild – T.: .:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-600 b.
8. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. / Qissalar. – T.: "Sharq". 2009. 300 b
9. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma: O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. T.:1990. 527 b